



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON  
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



## Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rne



***mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari***

Toshkent, 2020-yil 20-may



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek  
tili va adabiyoti universiteti**

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi**

**«MUHAMMAD RIZO OG‘AHIYNING O‘ZBEK  
MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI»**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman  
materiallari**

**Toshkent - 2020**

УЎК 821.512.153(092)

КБК 84

Ogahiy.

Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni [Matn]: – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2020. – 265 b.

Ushbu to'plamda "Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni" mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plamda Muhammad Rizo Ogahiyning adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik muammolari haqida so'z yuritiladi. Ogahiy ijodiy merosini o'rganishning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

*Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

**Mas'ul muharrir:**

Shuhrat Sirojiddinov,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Tahrir hay'ati**

Shuhrat Sirojiddinov, Ibrohim Haqqulov, Sirojiddin Sayyid, Nurboy Jabborov, Nafas Shodmonov, Abdulla O'rozboyev, Gulnoz Xalliyeva, Iqboloy Adizova, Karomat Mullaxo'jayeva, Dilnavoz Yusupova, Akromjon Dehqonov, Qo'ldosh Pardayev, Tozagul Matyoqubova, Ozoda Tojiboyeva, Orzigul Hamroyeva.

O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasining 2020-yil 13-may 19-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

11. Нуриева А.Х. Татарско-монгольские лексические параллели и определение монголизмов // Тюркское языкознание. — Ташкент: Фан, 1985.
12. Персидско-русский словарь. Том I. — М.: Русский язык, 1983.
13. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Риёзу-д-давла. Абу Райҳон Беруний номли Шарқшунослик институти. Асосий фонд. №5364 // II.
14. Shir Muhmmad Mirab Munis and Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. — Leiden—New York—Kobenhavn—Koln, 1988.
15. Фарҳанг-э лорусийи арабий-форсий. Таржумайи Муъжаму-л-арабийа-л-надис. — Техрон: Амири кабир, 1380 ھ.ш.
16. Щербак А. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. — М.: Издательство АН СССР, 1961.

## OGAHIY SHE'RIYATIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR METAFORIZATSIYASI XUSUSIDA

**Sarvinoz NURULLAYEVA**

*doktorant*

*BuxDU*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ogahiy g'azallari misolida o'zbek mumtoz she'riyatida mifologik obrazlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *o'zbek mumtoz she'riyati, mifologik obraz, metafora, metaforizatsiya, ajdar, Xizr, pari.*

XIX asr o'zbek adabiyoti Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy adabiyotimiz tarixida o'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan zabardast shoir, tarixchi olim, bilimdon muharrir va zakiy mutarjimdir. Shoir g'azallarida rang-barang obrazlardan foydalanilgan bo'lib, ular orasida mifologik obrazlar vositasida yaratilgan poetik ifodalar alohida diqqatni tortadi.

So'z san'atining dastlabki namunalari qadim zamonlarda dunyoga kelib, unda insoniyatning porloq kelajak haqidagi orzu-niyatlari turli mifologik obrazlar orqali aks ettirilgan. Ibtidoiy odamning o'ziga sirli ko'ringan tabiatni bilishga intilishi natijasida dastlabki mif va afsonalar yaratilgan bo'lib, ularda mifologik obrazlarning ilk namunalari o'z aksini topgan. Miflarda yaxshilik va

yomonlik haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan. Shuning uchun ko'pgina mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'alaridan yaxshi xabardor bo'lgan Ogahiy she'rlarida mifologik obrazlardan foydalanib, ularning stilizatsiyasi va metaforizatsiyasi orqali o'z g'oyasi va maqsadini bayon etadi. Xususan, Ogahiyning "Gavharmu ekan oyo" g'azalida eng murakkab va universal zoomorf mifologik obrazlardan biri ajdar obrazining quyidagicha ifodasiga shohid bo'lamiz:

*Gisularimu ul yuz ustida makon etkan,  
Ganj uzra va yo ikki ajdarmu ekan oyo.* [Ogahiy, 1971: 61].

Ajdar (ajdaho, ajdarho) turli xalqlar og'zaki ijodida qanotli, og'zidan o't purkaydigan ikki va undan ortiq boshli ilon qiyofasidagi afsonaviy maxluq obrazi sifatida talqin qilinadi. [Maxmaraimova, 2018: 23].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ajda(r)ho forscha so'z bo'lib, afsonaviy katta ilon ekanligi, ko'chma ma'noda qonxo'r, yovuz odamga nisbatan nafratni ifodalashi aytiladi. [O'TIL, 2006: 44]. Badiiy ijodda ajdaho, asosan, yovuzlik va ochko'zlik timsoli sanaladi va ko'chma ma'noda nafs, nafrat ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Mumtoz she'riyatimizda g'oyatda kuchli tuyg'u – ishqni ifodalovchi asosiy obrazlardan biri ajdaho obrazi sanaladi.

"O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da ajdaho obrazi o'ndan ortiq ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi qayd etilgan. [Maxmaraimova, 2018: 23-24]. Jumladan, badiiy ijodda go'zallik ramzi sifatida yorning jon oluvchi ko'zi va pechu-tob o'rim sochiga nisbatan ham ajdaho metaforasi ishlatiladi. Ogahiy qalamiga mansub yuqoridagi misralarda ajdaho so'zi aynan shu ma'noda, ya'ni yorning ikki o'rim sochi ma'nosida qo'llangan.

Afsonalarga ko'ra, xazina berkitilgan joyda ajdaho bo'lar emish. Ushbu baytda yorning yuzi xazinaga, sochi uni qo'riqlaydigan ajdarga o'xshatilgan. E'tiborli tomoni shundaki, shoir bu metaforizatsiya jarayonida xalqning ajdaho haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalaridan yiroqlashmagan. Yorning pechu tob sochlari ajdar ganj(xazina)ni qo'riqlagani kabi uning jamoli tegrasini egallaydi va oshiqqa bu xazinadan bahra olish imkonini bermaydi.

Ogahiyning "Ruxsori dilbar ustida" g'azalidan olingan quyidagi misralarda ham ajdar obrazi soch ma'nosida kelgan. Shuningdek, baytda ajdahoning o't yoqish semasi bilan bog'liq poetik ramziy ifoda hosil qilingani kuzatiladi:

*Ikki mushkin kokili ostida gulgun chehrasi,  
Husn ganjidurki, yotmish ikki ajdar ustida.* [Ogahiy, 1971: 76].

Mahbubaning ikki zulfi uning gulgun chehrasi ustiga tushib turadi. Go'yo ajdar xazina uzra o't purkagani kabi yor yuzlari gulgun(qizil)dir. Demak, yonoqlardagi gulday qizil rang ajdaho sochgan o't(olov)ga o'xshatilishi orqali shoir badiiy haqiqat yaratgan.

Ogahiy g'azallarida antropomorfik mifologik obrazlardan ham foydalanilgan. Jumladan, "Komyob o'lsam ne tong" g'azalidagi quyidagi baytda yorning labi ustidagi xat (mayin tuklar)ni Xizrga, uning la'li (og'zi)ni obi hayotga o'xshatish orqali ma'shuqaning benihoya shirinkalom ekanligini ko'rsatadi:

*Xat emas la'ling uzakim tobmoq istab toza jon,  
Yetkurubdur Xizr o'zini chashmai hayvoniga.* [Ogahiy, 1971: 78].

Xizr arabcha so'z bo'lib, "yashillanmoq, yashil tusga kirmoq" ma'nosini bildiradi. Islomiy rivoyatlarda hayot bulog'idan "obi hayot" ichib, umri boqiy bo'lgan taqvodor shaxs obrazini bildiradi. Xalqning ishonch-e'tiqodiga ko'ra, u og'ir ahvolda qolgan kishilarga chol, suvori yoki yo'lovchi ko'rinishida uchrab, ularning mushkulini oson qiladi. [O'TIL, 2008: 397].

Demak, shoir mahbubasining shirin kalomi kishiga jondek, obi hayotdek, malhamdek ta'sir qilishini Xizr suvi (chashmai hayvon) obrazi orqali ifodalagan.

"Biyikdur maqom ango" g'azalidagi ushbu baytda esa Xizr obrazining baxt va davlat ma'nosidan foydalanilgan:

*Ilyosu, Xizr hamrahi iqbolu baxtdek,  
Davlat bila qoyu taraf o'lsa xirom ango.* [Ogahiy, 1971: 57].

Ogahiy Xizr obrazini, ko'pincha, Iso-Masih, Ilyos, Iskandar kabi obrazlar bilan birgalikda qo'llaydi. Rivoyatlarga ko'ra, Masih nafasi jonsiz tanni tiriltiruvchi kuchga ega bo'lgan ekan. Xalq og'zaki ijodida Iskandarning tiriklik suvini qidirib yo'lga chiqishi haqidagi afsonalar ham mavjud. Ogahiy haqiqiy tiriklik chashmasi yor labida bo'lgani uchun ularning talablarini, xatti-harakatlarini behuda amallar deb biladi.

Xalq qarashlariga ko'ra, obi hayotdan ichgan kishi abadiy hayotga erishadi, haqiqiy oshiq esa mahbubasining shirin kalomidan bir umrga yetgulik lazzat tuyadi. Yorning gapirmasligi, og'iz ochmasligi oshiqni azoblab, ado qilsa, uning so'zlari taniga jon bag'ishlaydi go'yo.

Ogahiy g'azallarida keng qo'llangan antropomorf mifologik obrazlardan yana biri pari obrazidir. Pari obrazi ham xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog'liq. Uning paydo bo'lishi, o'zbek she'riyatiga kirib kelishi, ma'no qirralarining rivojlanishi bevosita xalq mifologiyasiga borib taqaladi.

Pari haqidagi mifik tasavvurlar genezisi O'rta Osiyoda yashagan qadimgi dehqonlarning hosildorlik g'oyasi bilan bog'liq agrar kultlari va go'zallik tushunchasiga aloqador estetik qarashlari zamirida shakllangan [Qayumov, 1999: 6]. Pari obrazidan, asosan, unga xos go'zallik, o'ziga rom qilish, jodulash, himoya qilish kabi xususiyatlarni ifodalashda foydalaniladi. Ushbu obraz ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri stilizatsiya qilinmay, ko'chma ma'noda qo'llaniladi, ya'ni metaforizatsiya qilinadi va bu poetik nutqning ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pari obrazi deyarli barcha shoirlar ijodida uchraydi. Ogahiy she'riyatida ham pari obrazi ko'pincha go'zal qiz timsolini yaratish maqsadida qo'llangan:

*Ul pari gisusikim tushmish sarosar tob ango,  
Yuz ko'ngul qaydi uchun har tobi bir qullob ango.* [Ogahiy, 1971: 61].

Yoki:

*Ko'zimga jilvagar ul yormu ekan oyo,  
Va yo pari manga duchor ekan oyo.* [Ogahiy, 1971: 65].

Xullas, Ogahiy pari haqidagi xalq ishonch-e'tiqodlari, afsona va rivoyatlar mazmunidan, mumtoz adabiyot an'alaridan chuqur xabardor bo'lgan. Pari obrazi sifatlariga ishora qilish orqali shoir keng ma'nodagi yor husnu jamolini, oshiq qalbidagi botiniy kechinmalarni ifodalagan. Mehr va vafo, sabr va bardosh, sadoqat va samimiyat kabi pokiza insoniy tuyg'ularni ulug'lagan, komil inson bo'lishga da'vat qilgan, go'zal poetik lavha va manzaralar yaratgan.

Umuman olganda, mumtoz she'riyatda mifologik metaforizatsiya qilinarkan, ularga xos belgi-xususiyatlardan ko'chma ma'noda foydalaniladi va o'ziga xos poetik joziba yaratilishiga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати – Т.: Чўлпон, 2018. – 100 б.
2. Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. I жилд (девон). – Т.: Гафур Гулом, 1971. – 392 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли. I жилд (Мадвалиев А. таҳрири остида). – Т.: ЎЗМЭ, 2006. – 680 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли. IV жилд (Мадвалиев А. таҳрири остида). – Т.: ЎЗМЭ, 2008. – 608 б.

5. Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси). Ф.ф.н илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореферати. Т. , 1999. – 26 б.

## OGAHIIY ASARLARIDA ANTROPONIMLAR

*Dilrabo KOMILOVA*

*talaba, UrDU*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ogahiy asarlaridagi antroponimlar tahlil qilingan bo'lib, ularning lingvopoetik xususiyatlari misollar asosida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** antroponim, badiiy matn, leksik birlik, allyuziv nom, pretsedent birliklar.

O'z zamonasidayoq serqirra ijodkor va yuksak iqtidor sohibi sifatida e'tirof qilingan Muhammad Rizo Ogahiy mangukka daxldor so'z san'atkori hisoblanadi. Ogahiy asarlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan biz ushbu ishimizda Ogahiy ijodida kam o'rganilgan masalalardan biri - antroponimlar yuzasidan fikr yuritishga harakat qildik.

Antroponimlar xalqning tarixi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan leksik birliklar hisoblangani uchun ularning ma'no, yuzaga kelish, rivojlanish, qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbek tili antroponimlarining nazariy masalalari bo'yicha teran tadqiqotlar olib borgan olim E.Begmatov badiiy matndagi onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish o'zbek filologiyasidagi dolzarb va yangi masalalardan biri ekanligini ta'kidlab, bu borada quyidagi fikrlarni aytadi: "Bunday tadqiq antroponomik materiallarga nafaqat lisoniy jihatdan, balki etnolingvistik, etnomadaniy, ruhshunoslik, sotsiolingvistik, estetik, tarixiy-diniy nuqtayi nazardan ham yondashishni talab qiladi". [Begmatov, 2013: 261].

Onomastik birliklar allyuziv nom sifatida qo'llanganida esa yozuvchining badiiy maqsadi birmuncha aniq ifodalanadi.

"Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish" usuliga allyuziya deyiladi [Йўлдошев,



ISROILOVA Sohiba. Ogahiy asarlari matni ustida ishlash.....	227
NAJMITDINOVA Naima. Ta'lim tizimida Ogahiy asarlarini o'qitish muammolari.....	230

### **OGAHY IJODINING TILSHUNOSLIKDAGI ILMIY TALQINLARI**

TILLAYEVA Muyassar. Ogahiy yangi sodda yasalma va qo'shma so'zlar ijodkori sifatida.....	234
NORBAYEVA Shukurjon. Ogahiy tarixiy asarlari leksikasi va Xorazm shevalari lug'at fondi.....	238
MAHMUDOV Raufjon. Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llangan ayrim avestoviy antroponimlarning etimologiyasi.....	243
RADJAPOVA Umida. "Lahjatu-l-lug'ot" - Ogahiy asarlari leksikasi tadqiqida muhim manba.....	248
NURULLAYEVA Sarvinoz. Ogahiy she'riyatida mifologik obrazlar metaforizatsiyasi xususida .....	253
KOMILOVA Dilrabo. Ogahiy asarlarida antroponimlar .....	257

*Ilmiy-ommabop nashr*

**MUHAMMAD RIZO OGAGHIYNING  
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA  
TUTGAN O‘RNI**

**Muharrir:**

*Tilavov Abdumurod*

**Dizayner:**

*Humoyun Is‘hoqov*

**Musahhiha:**

*Abdujalilova Diyora*

“Navoiy universiteti” nashriyot matbaa uyi

Terishga 2020-yil 15-mayda berildi.

Bichimi 84x108. 1/16. Cambria garniturasida tayyorlandi.

16 shartli b.t. 15,5 hisob nashr b.t.

(elektron nashr)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy

